

UDC: 342.4(045)(575.1)

BOSH QOMUSIMIZ – YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM HUQUQIY ASOSI

Azimov Hakimali Imomovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrası professor v. b.

ORCID: 0000-0001-5331-0588

e-mail: khakimaliazimov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Konstitutsiyamizning mamlakatimizda odil demokratik fuqarolik jamiyati barpo etishning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilib kelayotganligi hayotiy misollar va bir qator materiallar asosida ko'rsatib berilgan. Bosh qomusimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligiga 30 yil to'lishi munosabati bilan bosib o'tilgan tarixiy davrga atroflicha e'tibor qaratishga harakat qilingan. O'tgan davr mobaynida bosh qomusimiz jonajon vatanimiz davlatchilik tarixining an'analari va jahon konstitutsiyaviy tajribasining eng ilg'or jihatlari, eng maqbul prinsiplarini mujassamlashtirganligi va amalda to'la namoyon etganligi yetarli darajada o'rganilgan. Shuningdek, fuqarolik jamiyati haqida uni rivojlantirish borasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmun-mohiyatiga hayotiy misollar yordamida tushuntirishlar berilgan. Xalqimizning jamiyatni yangilash, modernizatsiya qilish, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish davrida erishgan barcha yutuqlar Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan huquqiy asoslar doirasida amalga oshirilganligi ko'rsatilgan. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarning hayotga izchil tatbiq etilayotganligi, xususan, qonun ustuvorligi, saylov tizimi hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar borasida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Maqolada Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasining asosiy prinsiplari, qoidalari hamda uning mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa milliy qonunchiligimizda o'zining chuqur ifodasini topganligi xususida ham bir qator ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati institutlari, yangi Saylov kodeksi, Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman).

НАША КОНСТИТУЦИЯ – ПРОЧНАЯ ПРАВОВАЯ ОСНОВА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Азимов Хакимали Имомович,

профессор кафедры «Общеобразовательные науки и культура»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье на реальных примерах и ряде материалов показано, что наша Конституция служит правовой основой построения справедливого демократического гражданского общества в нашей стране. По случаю 30-летия принятия Конституции Республики Узбекистан сделана попытка уделить пристальное внимание историческому развитию основного закона. За истекший период Основной закон воплотил в себе традиции истории государственности нашей страны, самые передовые аспекты мирового конституционного опыта и наиболее приемлемые принципы и в полной мере проявил себя на практике. Также на реальных примерах разъясняются содержание и суть проводимых в

Ўзбекистане кардинальных реформ по развитию гражданского общества. Показано, что все достижения нашего народа в период общественного обновления, модернизации, постепенного перехода к рыночным отношениям были реализованы в рамках правового поля, установленного нашей Конституцией. Особое место занимают идеи о последовательной реализации задач, определенных в Стратегии развития Нового Узбекистана, в частности о законности избирательной системы и кардинальных реформах по обеспечению прав и свобод человека. Статья содержит ряд сведений об основных принципах и нормах Всеобщей декларации прав человека, ее содержании, а также выражение Декларации в Конституции Республики Узбекистан и других актах национального законодательства.

Ключевые слова: Конституция, демократическое государство, гражданское общество, общественный контроль, институты гражданского общества, новый Избирательный кодекс, Всеобщая декларация прав человека, Национальный центр Республики Узбекистан, Уполномоченный Олий Мажлиса по правам человека (омбудсмен).

OUR CONSTITUTION IS A STRONG LEGAL BASIS FOR THE NEW UZBEKISTAN

Azimov Hakimali Imomovich,
Professor of the Department of General
Education Sciences and Culture,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article, using real examples and a number of materials, shows that our Constitution serves as the legal basis for building a fair democratic civil society in our country. On the occasion of the 30th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, an attempt was made to pay close attention to the historical development of the basic law. Over the past period, our fundamental law has embodied the traditions of the history of the statehood of our country and the most advanced aspects of the world constitutional experience, the most acceptable principles, and has fully manifested itself in practice. And also, on real examples, the content and essence of the cardinal reforms carried out in Uzbekistan to develop civil society are explained. It is shown that all the achievements of our people during the period of social renewal, modernization, gradual transition to market relations were implemented within the legal framework established by our Constitution. A special place is occupied by ideas about the consistent implementation of the tasks defined in the development strategy of the new Uzbekistan, in particular, the legality of the electoral system and cardinal reforms to ensure human rights and freedoms. The article contains a number of information about the basic principles and norms of the Universal Declaration of Human Rights and its content, as well as its expression in the Constitution of the Republic of Uzbekistan and other national legislations.

Keywords: Constitution, democratic state, civil society, public control, civil society institutions, new Electoral Code, Universal Declaration of Human Rights, National Center of the Republic of Uzbekistan, Commissioner for Human Rights of the Oliy Majlis (Ombudsman).

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nufuzi va ijtimoiy qadr-qimmatiyillar o'tgani sayin har tomonlama mustahkamlanib yuksalib bormoqda. Har bir davlatning asosiy qonuni jamiyatdagi barcha islohotlarning tub negizini tashkil etadi. Uning asosida davlat va jamiyat doimiy ravishda

takomillashib boradi. Shu ma'noda olib qara-ganda, davlat va jamiyat taraqqiyotining nechog'lik darajada ekanligini uning Konstitutsiyasi orqali bilib olishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etish jamiyatimiz rivojining siyosiy va konstitutsiyaviy

maqsadi etib belgilandi. Ushbu asosiy qomusimiz mamlakatimizda odil demokratik fuqarolik jamiyati barpo etishning huquqiy poydevori hisoblanadi [1]. Unda xalqimizning azaliy orzu-umidlari mujassam etilgani tarixiy ahamiyatga molikdir. Zero, bu oliy hujjat xalqimiz hayotida, uning ulkan yaratuvchanlik, bunyodkorlik ishlarida har tomonlama huquqiy asos vazifasini o'tayotganligi, huquqiy demokratik davlatning talab va mezonlari, shuningdek, xalqaro andozalarga to'la-to'kis mos ekanligi bilan tahsinga loyiq. Asosiy qomusimiz O'zbekistonni barpo etishda, shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirishda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilayotganligi har birimizning qalbimizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarni Taraqqiyot strategiyasi mazmun-mohiyati, xalqimizning talab va takliflari, qolaversa, turli sohalarda olib borilayotgan islohotlar tufayli o'zgarib borayotgan turmush tarzimizning o'zi taqozo etmoqda. Shu sababli hozirgi vaqtda "Inson – jamiyat – davlat" degan tamoyilni Konstitutsiyamiz va qonunlarimiz, kundalik hayotimizga chuqur singdirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Material va metodlar

Bu yil bosh qomusimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligiga 30 yil to'ladi. O'tgan davr mobaynida Konstitutsiyamiz o'z tarixining ko'p asrlik an'analari va jahon konstitutsiyaviy tajribasining eng ilg'or jihatlari, eng maqbul prinsiplarini o'zida mujassamlashtirganligini amalda to'la namoyon etdi. Xalqimizning jamiyatni yangilash, modernizatsiya qilish, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish davrida erishgan barcha yutuqlari Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan qator huquqiy asoslarga bog'liqligi, o'z navbatida, har bir fuqaroda kelajakka umid bilan qarash, demokratik davlat

va fuqarolik jamiyati tomon bosib o'tayotgan yo'limizga to'la ishonch hissini shakllantirdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyamizning 29 yilligiga O'zbekiston xalqiga yo'llagan bayram tabrigida ta'kidlaganlaridek: "Hayotimiz qomusi bo'lgan Konstitutsiyamiz mustaqillik yillarida erishgan barcha yutuq va marralarimizning mustahkam huquqiy poydevori bo'lib kelayotganini hammamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz. Aynan Konstitutsiyamizga tayanib, biz bundan besh yil oldin mamlakatimizda Harakatlar strategiyasini qabul qildik va yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni boshladik. O'tgan qisqa davrda jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy manzarasi butunlay o'zgardi. Erkinlik va ochiqlik, qonun ustuvorligi, jahon hamjamiyati bilan o'zaro manfaatli hamkorlik davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. Biz Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilgan huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish g'oyasiga sodiq qolib, shu yo'lda keng ko'lamli ulkan ishlarni amalga oshirdik, katta bilim va tajriba to'pladik. Avvalo, "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir" degan konstitutsiyaviy qoidadan kelib chiqib, xalq bilan doimiy muloqot qilish faoliyatimiz mezonini etib belgilandi. Davlat idoralari rahbarlari fuqarolar oldida hisobot beradigan samarali tizim yo'lga qo'yildi" [2].

Agar mustaqillikdan to hozirgi kunga qadar amalga oshirilgan islohotlar natijalariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, barcha erishilgan yutuqlarimiz bevosita Konstitutsiya bilan bog'liq. Bosh qomusimiz huquqiy demokratik davlatning talab va mezonlari, shuningdek, xalqaro andozalarga to'la-to'kis mos kelishi bilan e'tiborga loyiqdir. Shuni qayd etish kerakki, "Inson huquqlari" kategoriyasi ilk bor konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanib, asosiy qonunimizning muqaddimasidayoq o'z aksini topdi. Shaxs huquqiy maqomiga oid yangi konsepsiyaning eng muhim xususiyati shundaki, u konstitut-

siyaviy huquq va erkinliklar sohibi sifatida har bir konkret insonni tan oladi [3].

Konstitutsiyada huquqiy va siyosiy tafakkurning eng yuksak yutuqlari, o'zbek xalqining boy tarixi, madaniyati hamda milliy urf-odatlar, an'analari e'tirof etilgan. Shuningdek, davlatni boshqarish, mamlakat yaxlitligini ta'minlash yo'l-yo'riqlari o'z aksini topgan.

Inson manfaatlari ro'yobga chiqishida demokratik saylovlarning o'rni beqiyos ekanligini alohida qayd etish joiz. 2019-yilning 22-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik olganlariga saylov bo'lib o'tdi. 2019-yilning 25-iyunida O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi qabul qilindi. Kodeks qabul qilingunga qadar besh ta qonun Oliy Majlisga saylov, Respublika Prezidenti saylovi, xalq deputatlari mahalliy kengashlariga saylov, Markaziy saylov komissiyasi, Fuqarolar saylov huquqlari kafolatlari to'g'risidagi qonunlar mavjud bo'lib, ular jami 190 ta moddadan iborat edi. Qabul qilingan yangi saylov kodeksining asosan bir qancha takrorlashlar bartaraf etilib, yaxlit tizimga keltirilgan holda 18 ta bob, 103 moddadan iborat etib qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi [4].

Tadqiqot natijalari

Bu kabi o'ta muhim o'zgarishlar fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlardan dalolatdir. Fuqarolik jamiyati shunday jamiyatki, unda qonunlar ustuvorligi ta'minlanadi, inson huquq va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlashi kafolatlanadi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqeyi yuksak va mukammal qaror topgan bo'ladi [5]. Fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqich-

ma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi [6]. Shuni qayd etish kerakki, 2018-yil 4-mayda chiqarilgan "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon fuqarolik jamiyati faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatga molik ishlardan bo'ldi.

1991-yilda mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinishidan avval "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonun ishlab chiqildi va qabul qilindi. O'sha davrda respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida "nodavlat notijorat tashkiloti" tushunchasining o'zi mavjud emas edi, uning o'rniga "jamoat birlashmalari" iborasi qo'llangan. Shu sababli 1992-yilda Konstitutsiyani ishlab chiqishda "jamoat birlashmalari" tushunchasi kiritildi. "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun qabul qilingan kundan boshlab barcha huquqiy hujjatlarda "jamoat birlashmalari" iborasi o'rniga "nodavlat notijorat tashkilotlari" tushunchasi qo'llana boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi asosiy qonunining 56-moddasida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi.

Shu o'rinda qonun hujjatlarini yagona qonunchilikka aylantirish maqsadida Konstitutsiyaga "nodavlat notijorat tashkilotlari" tushunchasini kiritish zarurati ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart" ekanligi belgilangan. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi ikkinchi

qismi “Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart” deb belgilangan bo'lib, mazkur band matni jadvalning “Asoslash” bo'limidagi mulohaza va takliflar asosida aniqlashtirilishi, qat'iy, hamma tomonidan amal qilinadigan o'zgarmas mazmunga keltirilishi zarurati mavjud.

2022-yilning 11-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan korrupsiyaga moyil munosabatlarni bartaraf etish bo'yicha choralar dasturi tasdiqlandi. Dasturga ko'ra, OTMlarga o'qishga kirish uchun beriladigan imtiyozlar ro'yxati yagona hujjatda shakllantiriladi va bu imtiyozlar umumiy kvotaga kiritilmasligi to'g'risida qoida belgilanadi. Hozirgacha ham qator imtiyozlar, masalan, harbiy xizmat tavsiyanomasiga ega bo'lganlar uchun umumiy kvotadan tashqari o'rinlar ajratilayotgan edi. Yoki Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindorlari uchun ham qo'shimcha grant o'rinlari ajratilishi boshlangan.

Shunday bo'lsa-da, nafaqat OTMga kirish imtihonlari, balki boshqa yo'nalishlarda beriladigan imtiyozlar tartibini aniq qilib belgilash hamda unga xohlagan rahbar, mutasaddi tashkilotning o'z manfaatlarini ko'zlab, o'zgartirishlar kiritishning oldi olingan bo'lad. Bu bilan O'zbekiston fuqarolarining teng huquqliligi ta'minlanadi.

Konstitutsiyaning 65-moddasida “Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar” deb belgilab qo'yilgan. Shunga muvofiq, Konstitutsiya talablari-dan kelib chiqib, ota-onalarining kasbi va ijtimoiy mavqeyi sababli o'qishga kirishda ularning bolalariga berilayotgan imtiyozlarning Konstitutsiyaga mosligini ko'rib chiqish zarurati mavjud.

Tadqiqot natijalari tahlili

Inson qadr-qimmatini ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1991-yil 30-oktabrda ratifikatsiya qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tayyorlanishi hamda qabul qilinishida muhim g'oyaviy asos bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-dekabrda “Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi qarorining qabul qilinishi inson qadr-qimmatini yuksaltirishga qaratilganligidan yaqqol dalolatdir. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasida “Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir” deb belgilangan.

Konstitutsiyamizning 24-moddasida “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir” deb mustahkamlangan huquqiy normani amalda ta'minlash maqsadida 2008-yil 1-yanvardan jinoiy jazo tizimidan o'lim jazosining chiqarib tashlanishi e'tiborga loyiq ishlardan bo'ldi. Bu esa inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi va boshqa xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari, normalari hamda Konstitutsiyamizga to'la mos keladi. Eng muhimi, inson huquq va erkinliklarini huquqiy himoya qilish borasida O'zbekiston siyosati xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligi respublikamizda amalga oshirilayotgan insonparvarlik siyosatining yorqin isbotidir [7].

Umuman olganda, inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati va boshqa umum e'tirof etilgan daxlsiz huquqlari Konstitutsiyamizda o'z aksini topganligi bilan ahamiyatlidir. Bugungi kunda davlat idoralari-da murojaatlar bilan ishlash, xalqimizning og'irini yengil qilish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Bu borada ajdodlarimizning ulkan tajribalaridan unumli foydalanish ahami-

yatga molikdir. Xususan, Sohibqiron Amir Temurning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ulkan tajribasi, boy merosi va shaxsiy adolatparvarligi faqat o'z davri uchungina ahamiyatli bo'lib qolmasdan, bugungi kun uchun ham g'oyat muhimdir [8].

Shuni aytish kerakki, hozirgi kunda yurtdoshlarimizning ijtimoiy jarayonlarga nisbatan daxldorlik hissi tobora ortib bormoqda. Bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirish uchun fuqarolarda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish zarur. Zero, Konstitutsiya va qonunlarimizga bo'lgan hurmat tuyg'usi hayotimiz, jamiyatimizda tub islohotlarni amalga oshirishda mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi. Inson manfaatlarini, uning huquq va erkinliklari to'la ro'yobga chiqadi.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad inson huquq va erkinliklarini to'la ta'minlash, sud tizimini demokratlashtirish, fuqarolarning sud orqali himoyalani sh huquqlarini samarali ta'minlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash jarayonlarini yanada jadallashtirishdir. Darhaqiqat, qonun ustuvorligi barcha fuqarolar va mansabdor shaxslarga tegishli bo'lib, jamiyatning taraqqiy etib borishi hamda yuksalishida o'ta muhim vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda hayot sur'atlari beqiyos darajada shiddat bilan o'zgarib, rivojlanib bormoqda. Hayotning o'zi o'ta muhim islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyamizning 29 yilligiga O'zbekiston xalqiga yo'llagan bayram tabrigida ta'kidlaganlaridek: "Darhaqiqat, bugungi shiddatli davr bizdan zamonga mos harakat va o'zgarishlarni talab etmoqda. Ana shunday talabga javob beradigan mukammal Konstitutsiyaga ega bo'lish uchun Asosiy qonunimizning yangi loyihasini tayyorlashimiz, uni umumxalq muhokamasiga qo'yib, bildirilgan takliflar asosida takomillashtirish, ushbu muhim siyosiy hujjatni 2022-yil O'zbekiston Respublika-

si Konstitutsiyasining 30 yillik bayrami ni shonlanadigan kunlarda qabul qilish, o'ylaymanki, milliy davlatchilik an'analarimizga, xalqimiz manfaatlariga munosib ish bo'ladi" [2]. Shu o'rinda qayd etish joizki, bugungi kunda Konstitutsiyamizning 76 ta moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birga, 15 ta yangi modda va 1 ta yangi bob kiritilishi ko'zda tutilmoqda. Loyihada fuqarolar tomonidan taqdim qilingan 160 mingga yaqin takliflardan ham keng foydalanilgan.

Xulosalar

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimizda zamonaviy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning qonuniy asosi, diyorimizdagi tinchlik va osoyishtalik, fuqarolar va millatlararo hamjihatlik muhitini mustahkamlash, yurtimizning rivojlangan davlatlar qatoriga kirishi, xalqimiz farovonligini yanada oshirishning huquqiy kafolati bo'lib kelmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi takliflar bildirilmoqda:

- Konstitutsiyamizni atroflicha o'rganish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini tizimli yo'lga qo'yish;

- joylarda Konstitutsiya va qonun ijrosi yuzasidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

- fuqarolarning amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan daxldorlik hissini oshirish;

- jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan targ'ibot va tashviqot ishlarini tizimli tashkil etish;

- oliy va o'rta maxsus ta'lim dargohlari, shuningdek, maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani kuchaytirish, yoshlarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash;

- Konstitutsiyamizda e'tirof etilgan inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat ekanligi borasida tadbirlar o'tkazib borish;

- fuqarolarimizni qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan hamda sud-huquq tizimi sohasida amalga oshirilayotgan islo-

hotlar bilan xabardor etib borishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish;

– fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatiga qaratilgan huquqiy asoslarni yanada takomillashtirib borish;

– Yangi O'zbekiston va uchinchi renesans poydevorini barpo etish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati, uning huquqiy jihatlarini joylarda muntazam ravishda targ'ib etib borish lozim.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, O'zbekiston Publ., 2021.
2. Holiday greetings of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoev to the people of Uzbekistan on the 29th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. 2021, December 7. *People's word*, 2021, December 8.
3. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va barkamol jamiyat orzusi [The dream of a constitution and a perfect society]. Tashkent, O'qituvchi Publ., p. 84.
4. Mirakulov M. Saylov kodeksi – demokratiya ifodasi [The election code is an expression of democracy]. *Huquq – Law*, 2019, Jule 18.
5. Shayakubov Sh.Sh., Sultanova A.R. Reformirovaniye sistemy obrazovaniya – prioritetnoye napravleniye strategii razvitiya Uzbekistana [Reforming the education system is a priority direction of the development strategy of Uzbekistan]. *Nauka bez granits – Science without borders*, 2018, vol. 2 (19). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/reformirovanie-sistemy-obrazovaniya-prioritetnoe-napravlenie-strategii-razvitiya-uzbekistana/>.
6. Nosirhodjaeva G. The historical-philosophical heritage and the methodological problems of the history of science. *Review of Law Sciences*, 2017, vol. 1, iss. 2, Article 4. Available at: https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol1/iss2/4/.
7. Azimov H.I. Protection of human rights and freedom is highest value in basic law. *Review of Law Sciences*, 2019, vol. 4, iss. 1, Article 23. Available at: https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol2/iss1/31.
8. Azimov H.I. Amir Temurning tarixiy merosi – ilm-fan taraqqiyotining muhim omili [Amir Temur's historical legacy is an important factor in the development of science]. *Academic Research in Educational Sciences*, NUU Conference 2, Academic Research, 2022, pp. 1019–1023.
9. Temur tuzuklari [Timur's traps]. Tashkent, Sharq Publ., 2005.
10. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi [National encyclopedia of Uzbekistan]. Tashkent, Davlat ilmiy nashriyoti Publishing House, 2006, vol. 1.
11. Tojixonov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi [Theory of legal culture]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 1998, vol. 1.
12. Nizomulmuluk. Siyosatnoma [Policy]. Tashkent, Adolat Publ., 1997.
13. Falsafa qomusiy lug'at [Philosophy is a dictionary]. Tashkent, Sharq, 2004.
14. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri [City of virtuous people]. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2018.
15. Boboyev X., G'ofurov Z. O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti [Development of political and spiritual-educational teachings in Uzbekistan]. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2001.
16. Sulaymonova F. Sharq va G'arb [East and West]. Tashkent, O'zbekiston Publ., 1997.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

MAXSUS SON

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 30.12.2022-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,11 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 179.

TDYU tipografiyasida chop etildi.